



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 06 | pp. 54-61 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### MINTAQADA XIZMAT KO'RSATISH SOHASI KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH



**Qurbanova O.T.**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini raqobatbardoshligi va uni oshirish zarurligi bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar hamda o'ziga xos xususiyatlari, mavjud imkoniyatlari, asosiy ustuvor yo'nalishlari yoritilgan. Shuningdek, mintaqada xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Аннотация.** В статье рассматриваются проведенные исследования конкурентоспособности предприятий сферы услуг и необходимость ее повышения, а также ее особенности, имеющиеся возможности и основные приоритетные направления. Также разработаны предложения и рекомендации по повышению конкурентоспособности предприятий сферы услуг региона.

**Abstract.** This article discusses the research conducted on the competitiveness of service enterprises and the need to increase it, as well as its specific features, existing opportunities, and main priority areas. Also, proposals and recommendations have been developed to increase the competitiveness of service enterprises in the region.

**Kalit so'zlar.** Mintaqa, xizmat, xizmat ko'rsatish, korxonalar, xizmat ko'rsatish korxonalarini, raqobat, raqobatbardoshlik.

**Ключевые слова.** Регион, услуга, сервис, предприятие, предприятия сферы услуг, конкуренция, конкурентоспособность.

**Key words.** Region, service, service, enterprise, service enterprises, competition, competitiveness.

### Kirish

Bugungi kunda mamlakatimizda asosiy ustuvor masala sifatida iqtisodiy tarmoqlarni isloh qilishga asoslanadi. Bu borada sohaga oid iqtisodiy yondashuvlar ishlab chiqishni taqozo qiladi. Ushbu yondashuvlarni samarali amalga oshirish borasida mamlakatimizda tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, hududlar o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, alohida yondashuvlar asosida xizmatlar sohasini rivojlantirish, tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy resurslar va infratuzilma bilan ta'minlash hamda ularga qulay soliq rejimini joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-104-son qarori qabul qilindi [1]. Ushbu qaror orqali xizmat ko'rsatish sohasini keng taraqqiy qildirish va mamlakatimizdagi har

bir mintaqalarda xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari raqobatbardoshligini oshirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

### Adabiyotlar tahlili

Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini samarali rivojlantirish va ular raqobatbardoshligini oshirish yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Chunki, iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini tashkiliy-iqtisodiy jihatdan to'g'ri shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi tadqiqotlarga asosan, ushbu sohaning rivojlanishi tashkiliy jihatdan optimal va xizmatlar bozori kon'yunkturasiga nisbatan egiluvchan bo'lsagina, xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi. Shunday ekan, xizmat ko'rsatish sohasida mehnat faoliyatini tashkil etishni to'g'ri yo'lga qo'yish milliy iqtisodiyot miqyosida bir qator ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni bartaraf etishga sabab bo'ladi [2].

Boshqa tadqiqotlarda xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatini tahlil qilish uning samaradorligini tahlil qilishga asoslanadi. Xususan, xizmat ko'rsatish korxonalari samaradorligini tahlil qilishda uning unumdorlik bilan o'zaro aloqadorligini baholash muhim o'ringa ega bo'lib, bunda unumdorlik umumiy samaradorlikni aniqlashda miqdoriy yondashuvni belgilovchi ko'rsatkich hisoblanadi [3]. Ushbu korxonalar samaradorligini oshirish bevosita raqobat va uning tahlillarini amalga oshirishni taqozo etadi. Shunga muvofiq, tadqiqotlarda raqobat har qanday bozor iqtisodiyotining harakatlantiruvchi kuchi bo'lib hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda raqobat biznesni rivojlantirish uchun hal qiluvchi omil bo'lib, raqobatbardoshlik esa biznesning umumiy farovonligining eng muhim shartidir [4]. Bu esa mamlakatdagi iqtisodiy shart-sharoit va o'zgaruvchan bozor kon'yunkturasiga moslashuvchan moslashish uchun yetarli salohiyatga ega bo'lgan xizmat ko'rsatish korxonalari sohasini milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga ta'sirini belgilaydi.

Tadqiqotlarda xizmat ko'rsatish korxonalarining faoliyat ko'rsatish samaradorligi bevosita raqobatni kuchayishi sharoitida amal qilishi tadqiq qiladi. Jumladan, xizmatlar bozorida raqobatning kuchayishi, iste'molchilarning xohish-istaklari, hatti-harakatini o'zgarishining yuqoriligi, barcha turdagi resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish zarurati hamda xizmat ko'rsatish sifatini standartlashtirish va sertifikatlashning zamonaviy talablari ko'rsatilishi lozim bo'lgan xizmatlar sifatini ta'minlashning konseptual mexanizmini shakllantirishga tizimli yondashuvni talab qiladi [5]. Shu bois, kuchli raqobat sharoitida xizmat ko'rsatish korxonasining bozorda samarali ishlashi, ba'zan esa uning omon qolishi ko'p jihatdan ishlab chiqarilayotgan mahsulot yoki xizmatlar hamda korxonalar raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha ko'rilayotgan choratadbirlarga bog'liq bo'ladi. Bu esa korxonalar tomonidan sotilayotgan mahsulotlar zamonaviy bozor shart-sharoitlari va hozirgi iste'molchilar talablariga mos keladigan hollarda amalga oshiriladi. Shuningdek, ushbu korxonalar rentabellik darajasini oshirish uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini pasaytirmagan holda faqat tannarxini pasaytirishga erishishlari kerak.

Tadqiqotlarga ko'ra, raqobatbardoshlik raqobatni amalga oshirishga imkon berishi bayon etiladi. Ya'ni, raqobatbardoshlik tashkilotning asosiy mulki sifatida ushbu tushunchasiz bozor iqtisodiyoti sharoitida mavjud bo'lishi va samarali faoliyat yuritishi mumkin emas [6]. Unga asosan, ushbu raqobatbardoshlik bevosita samaradorlikni

oshirishga imkon berishi asoslanadi. Yana bir tadqiqotlarga asosan, raqobatbardoshlik barqaror yuqori rentabellikni ta'minlash va xarajatlarni kamaytirish natijasida yuzaga keladigan muhim strategik vazifani avtomatik ravishda hal qiladigan vosita bo'lib, xizmat ko'rsatish sohasi korxonasi samaradorligini oshirishga imkon beradi [7]. Bu esa xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarining yuqori darajadagi raqobatbardoshligini ta'minlash lozimligini belgilaydi.

Olib borilgan tadqiqotlarga asosan, uni shakli sifatida asosan sanoat korxonalari raqobatbardoshligi atrof-muhitni hisobga olish va raqamlashtirishni amalga oshirishga qaratiladi. Ya'ni, ta'minot zanjirini raqamlashtirish va logistika samaradorligi sanoat korxonalari raqobatbardoshligiga ta'sir qilsa-da va atrof-muhitni tartibga solish zarurligi aniqlagan bo'lsa-da, cheklovlar mavjud bo'ladi. Bu esa ta'minot zanjirini raqamlashtirish va logistika samaradorligi o'rtasidagi dinamik munosabatlar va uzoq muddatli ta'sirlarga ega hamda Xitoyda sanoat sohasida ro'yxatga olingan korxonalar bilan cheklangan hisoblanadi [8]. Buning uchun vaqt oralig'ini kengaytirishi, mavjud omillarning interaktiv mexanizmlari va uzoq muddatli ta'sirini tahlil qilish talab etiladi.

Yana bir tadqiqotlar ro'yxatga olingan korxonalarining 2011 yildan 2022 yilgacha bo'lgan yillik hisobotlariga asoslanib, ta'minot zanjirining barqarorligi, logistika samaradorligi va korxonalar raqobatbardoshligi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi [9]. Bu borada olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ta'minot zanjiri barqarorligi korxonalar raqobatbardoshligini oshirishi mumkin. Logistika samaradorligi va korxonalar raqobatbardoshligi o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjud bo'ladi. Hamda, raqamli transformatsiya ta'minot zanjiri barqarorligi va korxonalar raqobatbardoshligi o'rtasida vositachi rol o'ynaydi. Ta'minot zanjiri chidamliligining ishlab chiqarish va noishlab chiqarish korxonalari raqobatbardoshligiga ta'siriga asoslanadi.

Boshqa tadqiqotlarda xizmat ko'rsatish korxonalarining tadbirkorlik tuzilmalari shaklida faoliyat ko'rsatishi va uning raqobatbardoshligini amalga oshirish mexanizmlari tadqiq qilingan. Xususan, tadbirkorlik tuzilmalari raqobatbardoshligi turli xo'jalik yurituvchi sub'ektlar sharoitida bozorda tovarlar, ishlar va xizmatlarga bo'lgan talabni nazorat qilishning asosiy bozor mexanizmi sifatida qaraladi. Bu boradagi tadqiqot strategik yondashuvlardan foydalangan holda korporativ tuzilmalarning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha takliflarni shakllantirishdan iborat bo'ladi [10]. Bu esa faol korxonalar tuzilmalarining raqobatbardosh ustunliklari va raqobatbardosh salohiyatini baholashdagi unsurlar va raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini hisobga olish masalalarini hal qilish uslubini yaratishga imkon berdi. Natijada, ushbu yo'nalishlar tadbirkorlikni rivojlantirishning maqsadli dasturini yaratishda asos bo'ladi.

Boshqa bir tadqiqotlarga ko'ra, xizmat ko'rsatish korxonalarining raqobatbardoshligi bevosita ularda ishlovchi xodimlar malakasiga bog'liq bo'ladi. Ya'ni, yuqori texnik doiradagi raqobatbardosh xizmat ko'rsatish uchun xodimlarning malakasi xizmat ko'rsatish sifatini oshirish talablariga mos kelishi zarur [11]. Bu orqali xizmat ko'rsatish standartlariga iste'mol talablari doimo oshib boradi. Natijada, xizmatlarning yuqori sifatiga erishishi iqtisodiyotni diversifikatsiyalash jarayonida xizmat ko'rsatish korxonalarining asosiy vazifasi bo'lib hisoblanishi kerak.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Maqolada turli tahlil usullari, jumladan taqqoslash, tahlil va sintez, induksiya va deduktsiya, guruhlash kabi usullar keng qo'llanildi

### Tahlil va natijalar

Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarining raqobatbardoshligi ustuvor masala sifatida korxonalarining raqobatbardoshligini boshqarishning samarali mexanizmini ishlab chiqish bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Shunga asosan, mintaqada xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish uchun quyidagi yo'nalishlarda kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur, deb hisoblaymiz (1-jadval):

1-jadval

### Mintaqada xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish yo'llari

| No | Asosiy yo'nalishlari                       | Tarkibi   | Tarkibiga mos bo'lgan vazifalari   |
|----|--|---|--|
| 1  | <i>Xizmat ko'rsatish sifatini oshirish</i> | xodimlar malakasini oshirish  | - muntazam ravishda xodimlar uchun o'quv kurslari, treninglar va mahorat darslarini tashkil etish.<br>- xodimlarni attestatsiyadan o'tkazib, ularni bilim va ko'nikmalarini baholab borish.<br>- eng yaxshi xodimlarni rag'batlantirish va ularning tajribasini ommalashtirish |
|    |  | zamonaviy texnologiyalarni joriy etish  | - xizmat ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun dasturiy ta'minotdan foydalanish.<br>- onlayn xizmatlar va mobil ilovalarni rivojlantirish.<br>- kiberxavfsizlikni ta'minlash  |
|    |  | mijozlar bilan aloqalarni yaxshilash  | - mijozlar uchun qulay va tezkor aloqa kanallarini yaratish.<br>- mijozlar fikr-mulohazalarini muntazam ravishda o'rganish va ularga javob berish.<br>- mijozlarga sodiqlik dasturlarini ishlab chiqish  |
|    |  | xizmat ko'rsatish standartlarini joriy etish  | - xizmat ko'rsatishning aniq standartlarini ishlab chiqish va ularga rioya qilish.<br>- xizmat ko'rsatish sifatini muntazam ravishda nazorat qilish va baholash  |
| 2  | <i>Marketing va reklama</i>                | mintaqa xususiyatlarini hisobga olgan holda marketing strategiyasini ishlab chiqish | - mintaqadagi demografik vaziyat, madaniy xususiyatlar va iste'molchilar afzalliklarini o'rganish.<br>- marketing tadbirlarini shu ma'lumotlarga asoslangan holda rejalashtirish   |
|    |  | onlayn marketingni  | - kompaniya veb-saytini optimallashtirish va qidiruv tizimlarida yuqori o'rinlarni egallashga  |

|   |  |   |   |
|---|--|---|---|
|   |  | rivojlantirish  | erishish.<br>- ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lish va reklama tadbirlarini o'tkazish.<br>- elektron pochta marketingini yo'lga qo'yish  |
|   |  | oflayn marketingni qo'llash                                     | - mahalliy gazeta va jurnallarda reklama berish.<br>- ko'rgazmalar va yarmarkalarda ishtirok etish.<br>- mahalliy radio va televideniada reklama roliklarini efirga uzatish   |
|   |  | jamoatchilik bilan aloqalarni o'rnatish                         | - mahalliy ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish.<br>- jamiyat uchun foydali loyihalarda ishtirok etish.<br>- korxonada obro'sini oshirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish   |
| 3 | <b>Narx siyosati</b>                       | raqobatbardosh narxlarni taklif etish                           | - raqobatchilar narxlarini muntazam ravishda o'rganish.<br>- xizmatlar sifatini hisobga olib, optimal narxlar belgilash.<br>- aktsiya va chegirmalar taklif etish   |
|   |  | narxlash strategiyalarini diversifikatsiya qilish               | - turli mijozlar segmentlari uchun narx strategiyalarini qo'llash.<br>- paket xizmatlarni taklif etish.<br>- loyihaga asoslangan narxlashni qo'llash  |
|   |  | narx belgilashdagi xarajatlarni hisobga olish                   | - xizmat ko'rsatish xarajatlarini hisoblash.<br>- xarajatlarni kamaytirish uchun chora-tadbirlar ko'rish.<br>- foyda marjasini optimallashtirish  |
| 4 | <b>Innovatsiyalar va yangi xizmatlar</b>   | doimiy ravishda yangi xizmatlar va mahsulotlarni ishlab chiqish | - mijozlar ehtiyojlarini o'rganish va ularni qondirishga qaratilgan xizmatlar yaratish.<br>- raqobatchilar takliflarini tahlil qilish va ulardan o'zib ketishga harakat qilish.<br>- yangi texnologiyalarni joriy etish orqali xizmatlarni yaxshilash |
|   |  | mavjud xizmatlarni takomillashtirish                            | - xizmat ko'rsatish jarayonlarini optimallashtirish.<br>- mijozlarga ko'proq qulaylik yaratishga qaratilgan o'zgarishlar qilish.<br>- xizmatlar sifatini oshirish   |
| 5 | <b>Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash</b> | innovatsion g'oyalarni rag'batlantirish                         | - xodimlar o'rtasida innovatsion g'oyalar tanlovlarini o'tkazish.<br>- eng yaxshi g'oyalarni amalda qo'llash.<br>- innovatsiyalarni joriy etish uchun   |

|  |   |  |
|--|---|--|
|  |   | investitsiyalar kiritish   |
|  | xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish | - korxonalariga moliyaviy yordam ko'rsatish.<br>- xodimlar malakasini oshirish uchun o'quv markazlarini tashkil etish.<br>- infrastrukturani yaxshilash                                |
|  | tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish                   | - ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish.<br>- soliq yukini kamaytirish.<br>- bojxona to'lovlarini optimallashtirish  |
|  | xizmat ko'rsatish sohasida raqobatni rivojlantirish                                       | - monopoliyaga qarshi kurashish.<br>- yangi korxonalarining kirib kelishiga to'sqinlik qiluvchi omillarni bartaraf etish.<br>- tender va tanlovlar o'tkazishda shaffoflikni ta'minlash |

Shular bilan birgalikda, mintaqada xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish uchun innovatsiyalardan izchil foydalangan holda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning yangi va ilg'or shakllarini yaratish, davlat va xalqaro standartlarga javob beradigan sifatli mahsulot yaratish, xizmatga eng yuqori talab bo'lgan bozor segmentlarida tovarlarni erkin sotish, yuqori sifatli xom ashyolardan unumli foydalanish, xodimlarning moddiy manfaatdorligini oshirish va mehnat sharoitlarini yaxshilash, mijozlar ehtiyojlarini aniqlash uchun bozor tadqiqotlarini o'tkazib, raqobatchilarni doimiy tahlil qilish va ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan izchil aloqalar o'rnatib, mahsulot sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga yetarli sarmoya kiritish, samarali targ'ibot tadbirlaridan keng foydalanish hamda savdo belgisiga ega bo'lgan xususiy brendli mahsulotlardan foydalanish kabi choralarni qo'llash lozim bo'ladi.

### Xulosa

Xizmat ko'rsatish sohasining raqobatbardoshligini oshirish murakkab va ko'p qirrali jarayon sifatida bir nechta asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Ushbu yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish orqali xizmat ko'rsatish sohasining umumiy raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Ushbu yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar xizmat ko'rsatish sohasining raqobatbardoshligini oshirish orqali iqtisodiyotdagi rolini mustahkamlashga imkon beradi. Natijada, iqtisodiyot tarmoqlarida cheksiz raqobat sharoitida yuqori samaradorlik bilan ishlash darajasi oshadi. Shunday ekan, korxonalar raqobatbardoshligi uning salohiyati, imkoniyatlari va bozor munosabatlariga moslashib boradi. Mazkur sharoitda korxonalar raqobatbardoshligini oshirish ko'p jihatdan mahsulot sifatini yaxshilash, xizmatlar va tovarlar narxini

pasaytirish, innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni joriy etish hamda yangi imkoniyatlarni izlashga asoslanadi.

Ushbu xulosalardan kalib chiqib, mintaqada xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish uchun quyidagi eng zarur bo'lgan chora-tadbirlarni ham amalga oshirish mumkin:

- mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish. Buning uchun mintaqada mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishda texnik, sanitariya va ekologik me'yorlarga rioya qilish bo'yicha tizimli ishlarni olib borish talab etiladi.

- yangi texnologiyalardan foydalanish. Bu esa mahsulotni qayta ishlash va ishlab chiqarishda yangi jarayon va texnologiyalardan foydalanish, tannarxni kamaytirish, bozorni egallash va uning ulushini oshirish imkonini beradi.

- bozorda yangi imkoniyatlarni ishlab chiqish. Bozor imkoniyatlaridan foydalana olish, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish, raqobat muhitidagi o'zgarishlarga tez javob berish va talab o'zgarishiga moslashishni talab qiladi.

- mintaqaviy klasterlar samaradorligini oshirish. Klasterlar doirasidagi davlat institutlari va firmalarning muvaffaqiyatli o'zaro hamkorligi mintaqalarga iqtisodiyot tarmoqlarida raqobatbardosh muvaffaqiyatlarga erishishga imkon beradi.

- xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish. Yuqori sifatli ishchi kuchi va boy resurslarga ega hududlar tashqi investitsiyalarni jalb qilishga imkon berib, kapital, texnologiya, boshqaruv va yangi bilim olib keladi.

Mazkur yo'nalishlarda kompleks chora-tadbirlar amalga oshirish orqali mintaqada xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Biroq, bu holatda korxonalar o'zining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda individual strategiyani ishlab chiqishi talab etiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-104-son qarori. Manba: <https://lex.uz/uz/docs/5840284>

2. Djalilov F.A. Xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy-elektron jurnali, №2, mart-aprel, 2017 yil. – 1-8 b.

3. Ismailov B.A. Xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyati samaradorligining ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili. // Iqtisod va moliya, 2021, 9(145). - 14 b.

4. <https://ejournals.id/index.php/IJBMA/article/view/188>

5. Asenbayeva A.Y. Xizmat ko'rsatish korxonalarida raqobatbardoshlikni boshqarish usullari va bosqichlari. // International scientific and practical conference "Economics, management and digital innovation in education: modern trends and approaches", March 13, 2024. - 141 b.

6. Лысова Е.А. Разработка организационно-экономического механизма управления конкурентоспособностью предприятия сферы услуг. // Научно-технические ведомости СПбГПУ. Экономические науки, № 2(192), 2014. - с. 88.

7. Мамонтова А.Д. Пути повышения конкурентоспособности предприятий сферы услуг. // Международный научный журнал «Инновационная наука», №5/2016. - с. 128.

8. Zirong Wang, Liwei Gao, Wanyu Wang. The impact of supply chain digitization and logistics efficiency on the competitiveness of industrial enterprises. // *International Review of Economics and Finance*, 97 (2025), 103759. - p. 9.

9. Dawei Zheng, Tingdong Wang. Supply chain resilience, logistics efficiency, and enterprise competitiveness. // *Finance Research Letters*, 79 (2025), 107335. – p. 1-7.

10. Nurgaliyeva A., Abuselidze G., Imanbayeva Z., Mubarakova B., Shukurova B., Zhailaubayeva S. (2025). Strategic Planning Methodology for Increasing the Competitiveness of Business Structures. In: Hamdan A., Braendle U. (eds) *Harnessing AI, Machine Learning, and IoT for Intelligent Business. Studies in Systems, Decision and Control*, vol 555. Springer, Cham. [https://doi.org/10.1007/978-3-031-67890-5\\_26](https://doi.org/10.1007/978-3-031-67890-5_26)

11. Ikromov E.I. Xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy – iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishlari. // *International scientific journal «Modern science and research»*, Volume3, Issue4, 2024. - 806 b.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

